

**XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY  
METODLARNING O'RNI HAMDA TAFOVUTLARI**

*Suvanova Oydin*

*O'zDJTU, 2-ingliz tili fakulteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Mamatkulova Nilufar*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turli ta'lif muassasalarida o'rgatilayotgan xorijiy tillarni o'qitishda foydalanim kelinayotgan an'anaviy hamda zamonaviy ta'lif metodlari yoritilib, ularning tafovutlari va ba'zi na'munalar keltirilib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** an'anaviy, zamonaviy, ma'ruza, yakuniy baholash, interaktiv, kreativ, onlayn platforma.

Xorijiy tillarni o'rgatish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, ushbu davr mobaynida ko'plab an'anaviy ta'lif metodlaridan foydalanim o'qitilganligini ko'rishimiz mumkin ushbu ta'lif turi hozirga qadar saqlanib qolgan bo'lib, bunga qo'shimcha tarzda bugungi kunda zamonaviy metodlardan ham keng ko'lamda foydalanim kelinmoqda. Dastavval, an'anaviy metod tushunchasini yoritib oladigan bo'lsak, an'anaviy metodika bu muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lif jarayonida asosan o'qituvchi shaxsiga qaratilgan hamda qat'iylashgan o'quv tizimidan iborat metodika deya olish mumkinm o'qituvchi markazida deyilishiga asosiy sabab bu ta'lif jarayonida o'qituvchi muhim rol o'ynaydi, ya'ni u bilimlarni yetkazuvchi, dars jarayonini yolg'iz o'zi tashkil etgan holda bunday holatda o'quvchi ancha passiv rol o'ynaydi. Shuningdek, bu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, zamonaviy ta'lif metodikasi an'anaviy uslubdan ancha farqlangan holda ta'lif jarayoni talabalarning qiziqishlari hamda ehtiyojlariga asosan tashkil etiladi, ularga moslashtiriladi. O'qituvchi emas talabalar muhim ahamiyat kasb etadi, muammolarni hal qilish, turli debat ko'rinishidagi muhokamalar va boshqa ijodiy jarayonlarda ishtirok etishadi, bu o'rinda o'qituvchi ularni nazorat qilish, to'g'ri tashkil qilish vazifasini oladi.

Shuningdek, dars jarayoni tashkil etilishiga nazar soladigan bo'lsak, an'anaviy jarayonda ma'ruza qilish orqali o'qituvchi turli ma'lumotlar berib boradi, talaba esa tinglash orqali qaydlar olib boradi. Bu usul yangidan-yangi ma'lumotlar berishiga qaramasdan, talabalarda zerikish hissini uyg'otish mumkin bu esa o'z navbatida darsdan chalg'ish va turli ortiqcha muhokamalarga sabab bo'lishi mumkin shu tufayli ma'ruzalarning mohiyati avvalambor talaba va tinglovchilarga to'g'ri tushuntirilishi lozim bu jarayonda ular ham muhim rol o'ynashadi. Misol qilib keltiradigan bo'lsak, ingliz tilida biror ma'ruza oldidan to'g'ridan-to'g'ri boshlashdan oldin aynan talabalardan ushbu mavzuda avvaldan qanday ma'lumotlari borligi, ma'ruza jarayonida esa ularda bu haqida qanday savollar borligi so'ralishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu turli jihatlardan foydali bo'lib avvalo, tinglovchining ham e'tiborini

tortib diqqatini faqatgina auditoriyaga qaratishga yordam beradi. Shuningdek, an'anaviy metodikada o'zgarmas holga kelgan yana bir usul bu yakuniy baholash usulidir, ya'ni bunda o'quvchi talabaning yutuqlari hamda bilimi asosan sinov yoki turli yakuniy imtihonlar orqali aniqlanib, belgilanadi va dars jarayonida qattiq tuzilgan rejaga yoki o'quv qo'llanmasiga amal qilinadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin: dars rejasি qat'iy hisoblanib, o'quvchilar cheklangan erkinlik va so'z nutqiga ega. Masalan, dars mobaynida o'qituvchi kirib kelishi bilan dastavval davomat olinib, uygа berilgan topshiriqlar so'ralgan holda asosiy qismga o'tiladi hamda bu doimiy ravishda takrorlanib boradi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lif metodlarida turli interaktiv usullar qo'llaniladi, ya'ni xilma-xil guruh ishlari – jamoa bo'lib ishlash tajribasini, yangidan-yangi do'stlar orttirish, ularni yaqindan bilib olish va albatta kommunikativ sifatlarni yaxshilaydi; turli loyihalar, jumladan, mavzuga aloqador maketlar, ko'rgazmali qurollar yasash orqali qo'l mehnatini hamda kreativlikni oshiradi. Shu bilan birgalikda, aynan bir g'oya yoki mavzu tanlab bergen holda ularni loyihalashtirish misol bo'lishi mumkin; onlayn platformalar – bu esa o'z navbatida hozirgi zamonning deyarli barcha yoshlari uchun qiziqarli hamda ancha foydali bo'lishi mumkin. Texnologik bilimlarni oshirgan holda ularning vaqtি tejalishiga ham sabab bo'ladi. Shu bilan birgalikda, an'anaviy metodikadan farqli ravishda doimiy baholash tizimidan foydalanib kelinadi, ya'ni faqat yakuniy testlar bilan cheklanmaydi, aksincha, doimiy ravishda bajargan topshiriqlariga mos holda baholash olib boriladi va fikr-mulohazalar beriladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilardan faqatgina e'tiborini yakuniy teslarga emas, balki butun semister davomida aktiv bo'lishga, berilgan har bir vazifani a'lo darajada bajarishga, e'tiborini dars jarayoniga qaratishga ta'sir qiladi.

Dars jarayonida texnologiyalarni qo'llash – elektron o'qitish, darsdan tashqari turli "Google classrooms", ya'ni google darsxonalarini tashkil etish maqsadga muvofiq, chunki ushbu usul o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga ham ijobjiy ta'sir etadi. Video darslar hamda videoroliklardan foydalanish ham o'z navbatida darsdagi unumdarlikni oshiribgina qolmasdan, nafaqat sinfdagi o'qituvchilar tomonidan berilgan bilimlar balki boshqa turli mutaxassislar tarafidan keltirilgan ma'ruzadan ham xabardor bo'lish imkonini beradi va o'quvchilar e'tiborini hamda qiziqishini kuchaytira oladi.

Kreativlik va muammolarni hal qilish tajribalarini orttirish, ya'ni bunda talabalar mustaqil fikrlashga o'rgatiladi, misol uchun, ularga javobi aniq bo'lman savollar yoki bir nechta taxminiy javoblarga ega bo'lgan savollar berish orqali debat tashkil qilish va unda barcha o'quvchini qamrab olish ulardagi erkin fikrlash hamda bir mavzuda turli nuqtayi nazardan fikr yuritishga undaydi; qo'shimcha qilib oladigan bo'lsak, auditoriya oldiga turli savollar qo'yib, o'z fikrlarini himoya qilishga va albatta boshqalarni fikrini ham inobatga olgan holda ushbu yondashuvlarni ham oqilona

baholashga o'rgatadi, qo'shimcha ma'lumotlar ulashadi. Zamonaviy metodikaning yana bir ijobiy tomonlaridan biri bu tanqidiy fikrlashni o'rgata olishidir, jumladan, biror bir matn yoki kontekstdan kelib chiqib ularning farqli hamda o'xshash jihatlarini ajrata olish ko'nikmalarini oshiradi. Shu bilan birgalikda, bu usullar orqali talaba yoki o'quvchilar faqat bilim va qo'shimcha ma'lumot olish bilan cheklanib qolmasdan, ularni tahlil qila olish, qayta ishlash, o'zлari uchun analiz qila olish va keyinchalik ularni amaliyatga tadbiq etishni ham o'rganadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, an'anaviy va zamonaviy ta'lim metodlarida qisman o'xshashlik bo'lishiga qaramasdan katta tafovutga ham egadir. Ammo eng muhimi ularning har ikkovini ham o'z o'rнida maqsadga muvofiq qo'llay olishga bog'liqdir, ya'ni ularni o'quvchilarning bilim darajasidan va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda moslashtirish maqsadga muvofiqdir, shuningdek, talaba ham doimiy ravishda o'z imkoniyatlari va bilim sohasini kengaytirib har ikkala metodika turiga birdaniga ko'nika olishi ham talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xolbekov. A. O'qitish metodlari va texnologiyalari
2. M. To'xtaxo'jayeva (2010). Pedagogika
3. uzresearchers.com
4. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova(2013). Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanishi Toshkent